



NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**NAVOIY VILOYATIDA
OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI
FAOLIYATINING ASOSIY
STATISTIK KO'RSATKICHLARI**
(2023/2024- o'quv yili boshiga)

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi

Sifatli ta'lim olish odamlarning turmush sharoitini yaxshilash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga zamin yaratadi. Ta'limning qulayligi va sifati masalalari dunyoning barcha davlatlari strategik rivojlanish dasturlariga kiritilgan, chunki davlat aholining o'zini o'zi anglash imkoniyatlari uchun ta'lim muhitini yaratish orqali mamlakatda moddiy farovonlik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, inson kapitalini oshirishga hissa qo'shadi, o'z o'rnida, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yuksaltiradi va xalqaro maydonda raqobatdosh ustunlikni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlangan.

Savodsizlikka barham berish va barcha fuqarolar uchun arzon ta'limni ta'minlashda katta muvaffaqiyatlarga erishgan O'zbekiston, ta'limni davlat tomonidan moliyalashtirishning ustunligini saqlab kelmoqda, bu shubhasiz ijobiy omildir.

O'zbekiston Respublikasida **oliy ta'lim** uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- milliy istiqlol g'oyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- bilimlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- oliy ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi.



Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq, fanlarning dasturlari va o'quv rejalarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari;
- oliy ta'limni normativ-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta'minoti bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari, shuningdek, ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Dastur yakunida davlat komissiyasi tomonidan bitiruvchilarga o'qish yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" malakasi beriladi va tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir. O'qishni tugatgandan so'ng bitiruvchilar ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha diplom va magistr darajasiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ularga tenglashtirilgan oliy o'quv yurtlari).


Universitet – eng keng mutaxassisliklar bo'yicha oliy yoki oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini taklif qiladi.

Akademiya – alohidagi ilmiy sohalar va yo'nalishlar bo'yicha oliy va institutdan keyingi ta'limning pedagogik dasturlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Institut – aniq bilim sohasi doirasida ma'lum bir yo'nalishlar va darajalar bo'yicha oliy yoki oliy ta'limdan keyingi ta'limning o'quv dasturlarini amalga oshirish sohasida faoliyat yuritadi.



Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni (o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan *nodavlat* oliy ta'lim tashkilotlari soni (o'quv yili boshiga, birlik)



Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni



Ularning jami oliy ta'lim tashkilotlari sonidagi ulushi

2023/2024- o'quv yili boshiga Navoiy viloyatida 4 ta oliy ta'lim tashkilotlari (shundan 1 ta filial) faoliyat yuritmoqda. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni 2 tani tashkil etgan.



Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari sonining shahar va tumanlar kesimida va mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi (2023/2024- o'quv yili boshiga, birlik)

Navoiy viloyati 4 | +100,0%

Navoiy sh. 3 | +50,0%

Karmana t. 1 | -

Oliy ta'lim tashkilotlari soni | 2019/2020- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati



Navoiy viloyati 2 | 2


Navoiy sh. 2 | 1

Karmana t. - | 1

Davlat oliy ta'lim tashkilotlari soni | **Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni**



Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar soni (ming kishi)



2023/2024- o'quv yili boshiga


Navoiy sh. 5,1

Karmana t. 3,6




BAKALAVRIAT

MAGISTRATURA




Oliy ta'lim tashkilotlari qabul qilinganlarning gender taqsimoti (ming kishi)




Ta'lim bosqichlari kesimida (2023/2024- o'quv yili boshiga, ming kishi)

BAKALAVRIAT




MAGISTRATURA




Ta'lim turlari kesimida


Kunduzgi ta'lim




Sirtqi ta'lim



Kechki ta'lim



Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)



2023/2024- o'quv yili boshiga

Navoiy sh. 30,9

Karmana t. 7,9



Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida

2023/2024

29,4

13,6

2,2
barobarga

2019/2020

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida


2023/2024

9,4


0

2019/2020


Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining ta'lim bosqichlari va turlari kesimida taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, ming kishi)



Davlat granti bo'yicha o'qiyotgan talabalar




MAGISTRATURA




- Davlat granti bo'yicha o'qiyotgan talabalar soni
- Davlat granti bo'yicha o'qiyotgan talabalar ulushi

Ta'lim turlari kesimida




Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining gender taqsimoti (o'quv yili boshiga, ming kishi)




Ta'lim bosqichlari kesimida

BAKALAVRIAT




MAGISTRATURA




Ta'lim turlari kesimida


Kunduzgi ta'lim



Sirtqi ta'lim



Kechki ta'lim



Yigitlar Qizlar



Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining shahar va tumanlar kesimida gender taqsimoti (2023/2024- o'quv yili boshiga, ming kishi)

Navoiy viloyati 15,7 | 23,1

Navoiy sh. 12,4 | 18,5

Karmana t. 3,3 | 4,6



YIGITLAR | QIZLAR

Ta'lim bosqichlari kesimida

BAKALAVRIAT

Navoiy viloyati 15,6 | 22,9



Navoiy sh. 12,3 | 18,3

Karmana t. 3,3 | 4,6

MAGISTRATURA

Navoiy viloyati 0,1 | 0,2



Navoiy sh. 0,1 | 0,2




YIGITLAR | QIZLAR



Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi va ta'lim olayotgan tillari bo'yicha taqsimlanishi (2023/2024- o'quv yili boshiga, ming kishi)



Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni (ming kishi)




2023-yil uchun

Navoiy sh.

5,1




Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining gender taqsimoti (ming kishi)




Ta'lim bosqichlari kesimida (2023/2024- o'quv yili boshiga, ming kishi)

BAKALAVRIAT




MAGISTRATURA




Ta'lim turlari kesimida

Kunduzgi ta'lim



Sirtqi ta'lim




Oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchi xodimlar soni (o'quv yili boshiga, kishi)

2023/2024- o'quv yili boshiga

Navoiy sh. 809


Karmana t. 104



Oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchi xodimlar sonining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, kishi)


Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida, kishi

Ilmiy darajaga ega bo'lgan
professor-o'qituvchi xodimlar, ming kishi




Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida, kishi

Ilmiy unvonga ega bo'lgan
professor-o'qituvchi xodimlar, ming kishi



Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchi
xodimlarining gender taqsimoti
(o'quv yili boshiga, kishi)



Shahar va tumanlar kesimida
(2023/2024- o'quv yili boshiga , kishi)

Navoiy viloyati 505 | 408

Navoiy sh. 468 | 341

Karmana t. 37 | 67



ERKAKLAR | AYOLLAR





Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:

**Ijtimoiy soha
statistikasi bo'limi**



**Navoiy viloyati
statistika boshqarmasi**



**Manzil: Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4-uy**



Tel.: +99879 223-54-98



e-mail: nv@navstat.uz



www.navstat.uz



facebook.com/navstatistika

